



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARNING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	



KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI

Musulmonova Shahlo Nasriddinovna

Buxoro davlat texnika universiteti
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allik fenomenining ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy-kontseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kambag'allik tushunchasining tarixiy shakllanishi, jahon ilm-fanidagi yetakchi nazariyotchilar — Ch. Booth, B.S. Rowntree, É. Reclus, H. Mann, P. Townsend, A. Sen, A.B. Atkinson va J. Sachslarning ilmiy yondashuvlari, shuningdek, O'zbekiston va MDH iqtisodchi olimlari hissasi tizimli tarzda o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy tahlil, tizimli sharh va tasnifiy yondashuvga asoslanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kambag'allik ko'p o'lchovli, ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni faqat daromad mezonlari bilan o'lchash yetarli emas. Maqolada kambag'allikning yangi mualliflik ta'rifi taklif etilgan hamda O'zbekiston sharoitida kambag'allikning 10 ta o'ziga xos turi aniqlangan. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish siyosatini ishlab chiqishda va mintaqaviy tahlillar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, kambag'allik fenomeni, nazariy yondashuvlar, ko'p o'lchovli kambag'allik, kambag'allik tasnifi, O'zbekiston, mintaqaviy iqtisodiyot.

Abstract. This article analyses the socioeconomic and theoretical-conceptual foundations of the poverty phenomenon. The study systematically examines the historical formation of the poverty concept and the scientific approaches of leading world theorists — C. Booth, B.S. Rowntree, É. Reclus, H. Mann, P. Townsend, A. Sen, A.B. Atkinson, and J. Sachs — as well as the contributions of Uzbek and post-Soviet economists. The research methodology is based on comparative analysis, systematic review, and a classification approach. The results demonstrate that poverty is a multidimensional, multifaceted phenomenon that cannot be adequately measured by income criteria alone. The article proposes a new authorial definition of poverty and identifies 10 specific poverty types in the Uzbekistan context. The findings have practical significance for poverty reduction policy development and regional economic analysis.

Key words: poverty, poverty phenomenon, theoretical approaches, multidimensional poverty, poverty classification, Uzbekistan, regional economics.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-экономические и теоретико-концептуальные основы феномена бедности. В рамках исследования систематически изучаются историческое формирование понятия «бедность», научные подходы ведущих мировых теоретиков — Ч. Бута, Б.С. Раунтри, Э. Реклю, Х. Манна, П. Таунсенда, А. Сена, А.Б. Аткинсона и Дж. Сакса, а также вклад узбекских и постсоветских учёных-экономистов. Методология исследования основана на сравнительном анализе, систематическом обзоре и классификационном подходе. Результаты показывают, что бедность является многомерным, многогранным явлением. В статье предложено новое авторское определение бедности и выявлено 10 специфических видов бедности в условиях Узбекистана. Результаты исследования имеют практическое значение для разработки политики по сокращению бедности.

Ключевые слова: бедность, феномен бедности, теоретические подходы, многомерная бедность, классификация бедности, Узбекистан, региональная экономика.

KIRISH

Kambag'allik muammosi XXI asrda ham global miqyosda o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda va turli rivojlanish darajasidagi davlatlar uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchilik sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu hodisani tushunish va uni bartaraf etish yo'llarini izlash zamonaviy ijtimoiy fanlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari, texnologik inqilob va iqlim o'zgarishi kabi omillar kambag'allikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.



Raqamli bo'linish hodisasi zamonaviy kambag'allikning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalariga kirish imkoniyatining cheklanganligi ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy hayotda qatnashishni qiyinlashtiradi. Kambag'allik jahon hamjamiyatining asosiy muammolaridan biri bo'lib, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar hamda o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda asosiy ijtimoiy va iqtisodiy tahdid sifatida ko'riladi. Dunyoda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga qaramay, ko'plab mamlakatlarda munosib ish o'rinlari yaratish istiqbollari sust qolmoqda va ishlayotgan, lekin minimal daromadga ega bo'lgan ko'p sonli aholi mavjud bo'lib qolmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kambag'allik inson kapitalining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, 2020-yil hisobotida ta'kidlanishicha, kambag'al oilalarda tug'ilgan bolalar o'rtacha 7 yil kam ta'lim oladilar va ularning kelajakdagi daromadi 25–30 foizga past bo'ladi. Bu holat kambag'allikning davom etishiga olib keladi va "kambag'allik doirasi"ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha eng ko'p maosh oladigan ishchilarning 10 foizining daromadi eng kam maosh oladigan ishchilarning 10 foizining daromadidan o'n baravar ko'pdir. Kambag'allik o'chog'i bozor samarasizligi (qat'iy narxlar, kreditlash normalari, tavakkalchiliklar, sug'urta yetishmasligi) va institutsional muvaffaqiyatsizliklar (fuqarolar nizolari, korrupsiya) tufayli yuzaga keladi. L. Humberto va L. Serven isbotlaganidek, kambag'al aholi sonining 10 foizga ko'payishi iqtisodiy o'sishning 1 foizga pasayishiga olib keladi.

Shu sabab, kambag'allik fenomenini nazariy-kontseptual jihatdan chuqur o'rganish, uning turlarini milliy sharoitga mos ravishda tasniflash va kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi kambag'allik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, uning ko'p o'lchovli mohiyatini ochib berish va O'zbekiston sharoitiga mos tasnifini taqdim etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allik tushunchasiga dunyo bo'ylab yagona ta'rif mavjud emas. A.A. Poduzovning ta'kidlashicha, "barcha zamon va xalqlar uchun adolatli bo'lgan baxtsizliklarning umume'tirof etilgan, ilmiy asoslangan ta'rifi yo'q". O'zbek tili izohli lug'atida kambag'allik "hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati" sifatida ta'riflangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'kidlashicha, kambag'allik — insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, oilasini boqish, ta'lim olish, davolanish va kredit olish imkoniyatlarining yetishmasligida namoyon bo'ladi.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida kambag'allik bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar yo'lga qo'yila boshladi. Ch. Booth London aholisi o'rtasida kambag'allikni sistematik ravishda o'lchashga uringan; u kambag'allikni asosiy fiziologik ehtiyojlarni qondira olmaslik va minimal yashash sharoitlariga ega bo'lmaslik holati sifatida ta'riflagan. Boothning metodologiyasi kambag'allikni miqdoriy jihatdan baholashda muhim o'rin tutadi.

B.S. Rowntree "iste'mol savati" konsepsiyasini ishlab chiqib, kambag'allikning ikki turini ajratgan: birlamchi kambag'allik (daromad minimal ehtiyojlarni qoplashga yetmaydigan holat) va ikkilamchi kambag'allik (yetarli daromad mavjud, lekin u noto'g'ri sarflangan holat).

É. Reclus kambag'allikni tizimli muammo sifatida ko'rib chiqib, ta'lim va ma'rifat orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash zarurligini ta'kidlagan — kambag'allik individual kamchilik emas, balki ijtimoiy tizimning noadolat tuzilishi natijasidir. H. Mann esa kambag'allikni ta'lim imkoniyatlaridan mahrum bo'lish natijasida yuzaga keladigan va avloddan-avlodga o'tadigan ijtimoiy holat sifatida baholab, ta'limni kambag'allikka yechim bo'ladigan asosiy vosita deb ta'riflagan.

P. Townsend XX asrning ikkinchi yarmida kambag'allik konsepsiyasida tub o'zgarish yaratdi. U kambag'allikni "iqtisodiy resurslarning yetishmasligi sababli jamiyat a'zolarining ko'pchiligiga ma'lum bo'lgan turmush tarzini olib borish imkoniyatining yo'qligi" sifatida ta'riflagan va ko'p o'lchovli mahrumlik tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Townsend nazariyasida mahrumlik nafaqat moddiy jihatlarni (oziq-ovqat, kiyim, uy-joy), balki ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham (dam olish, ta'lim) o'z ichiga oladi.

A. Sen zamonaviy kambag'allik tadqiqotlarida inqilobiy o'zgarish yaratdi. "Erkinlik sifatidagi rivojlanish" asarida kambag'allik shunchaki daromad yetishmasligi emas, balki inson imkoniyatlarining cheklanishi va erkinliklardan foydalana olmaslik holati sifatida talqin etiladi. Sen "Imkoniyatlar yondashuvi" (Capabilities Approach) orqali kambag'allikni ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlari bilan bog'lash zarurligini ta'kidlagan. Senning nazariyasi BMT Rivojlanish Dasturi tomonidan Inson rivojlanish indeksini yaratishda asosiy nazariy manba sifatida foydalanilgan.

A.B. Atkinson kambag'allikni "nafaqat texnik, balki axloqiy va siyosiy jihatlarni ham hisobga olgan holda o'lchanishi kerak bo'lgan murakkab ijtimoiy holat" deb ta'riflagan; ijtimoiy siyosatni yaxshilash va resurslarni adolatli taqsimlash orqali hududiy kambag'allikni kamaytirish mumkinligini asoslab bergan.



J. Sachs “Kambag‘allikning tugashi” (End of Poverty) asarida hududiy kambag‘allikning sabablari sifatida geografik joylashuv, tabiiy resurslarning mavjudligi, iqlim o‘zgarishi va tarixiy rivojlanish jarayonlarini ko‘rsatib, infratuzilma, ta‘lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga e‘tibor qaratgan.

N.M. Rimashevskaya qashshoqlikning ikki shaklini ajratadi: suzuvchi (hozirgi, qaytariladigan) va qat‘iy (surunkali, uzoq vaqt takrorlanib turadigan). Surunkali qashshoqlik ijtimoiy nuqtayi nazardan eng xavfli shakl bo‘lib, u turmush tarzi va psixologiyada mustaqil omillar sifatida harakat qiladigan qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Yu.K. Shokamanov kambag‘allik hodisasini to‘g‘ri tushunish va baholash har bir mamlakatning o‘ziga xos sharoitlari doirasida amalga oshirilishi lozimligini ta‘kidlab, kambag‘allikning to‘rt ko‘rinishini farqlaydi: endemik (Afrika, Lotin Amerikasi), davriy/siklik (G‘arbiy Yevropa), mintaqaviy/guruhiy va individual kambag‘allik.

i.f.d. M. Kalonov kambag‘allik tushunchasini shu kungacha “yopiq mavzu” bo‘lib kelganligini va u “kam ta‘minlanganlik”, “ehtiyotmandlik” tushunchalaridan farq qilishini ta‘kidlagan.

X.X. Abduramanov demografik siyosat oilani rejalashtirish va o‘lim ko‘rsatkichlarini pasaytirish masalalariga yo‘naltirilishi zarurligini asoslab, demografik siyosatni aholining turmush darajasini yuksaltirish va kambag‘allik bilan kurashishning muhim vositasi sifatida baholagan.

N.N. Ernazarova oilaviy biznes sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mumkinligini va tadbirkorlikning iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rin egallashi lozimligini ta‘kidlagan.

R. Xasanov O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurash juda murakkab va ko‘p qirrali vazifa ekanligini ta‘kidlab, turli mintaqalarda, yoshdagi, jinsiy tarkibdagi aholida kambag‘allikning sabablari farq qilishini ko‘rsatgan. Muhtoj odamlarga faqat to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyaviy yordam ko‘rsatish orqali muammoni hal qilib bo‘lmasligini, balki odamlarning o‘z moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan sharoitlar yaratilishi zarurligini asoslab bergan.

Shuningdek, J. Xudoyberdiyev institutsional o‘zgarishlar sharoitida kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini, M. Mirzamahmudov davlat qarzi hisobidan kambag‘allikni qisqartirish yo‘llarini, Musayeva esa kambag‘allikni qisqartirishni ekonometrik tahlil qilish mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi: Ushbu maqolaning

Qiyosiy tahlil metodi — kambag‘allik tushunchalarining G‘arb va MDH maktablari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki) va milliy manbalar kesimida qiyosiy o‘rganilishi uchun qo‘llanilgan. Bu yondashuv nazariy modellarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon bergan.

Tizimli sharh metodi (Systematic review) — kambag‘allik bo‘yicha XIX asr oxiridan hozirgi kungacha bo‘lgan davr mobaynida nashr etilgan asosiy ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda o‘rganish uchun foydalanilgan. Manba sifatida SCOPUS, Web of Science, Google Scholar bazalari, shuningdek, milliy OAK ro‘yxatidagi jurnallar qo‘llanilgan.

Tasnifiy yondashuv — kambag‘allikning turli ko‘rinishlarini ma‘lum mezonlar asosida guruhlash va ularning O‘zbekiston sharoitidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatilgan. Tasnif “Alkire-Foster” ko‘p o‘lchovli yondashuvi, P. Townsend va A. Senning nazariy asoslari, shuningdek, O‘zbekiston Statistika agentligining ma‘lumotlari va muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomalalar asosida shakllangan.

Induktiv-deduktiv mantiq — kambag‘allikning umumiy nazariy asoslaridan O‘zbekiston sharoitiga xos xususiyatlar va o‘ziga xos turlarni aniqlashga qadar yo‘naltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslar, tadqiqotchilarning yondashuvlari va milliy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi mualliflik ta‘rifi taklif etiladi:

Kambag‘allik — bu insonning hayotini yaxshilash imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishi, resurslar, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va mehnat imkoniyatlaridan foydalanishda cheklanishlar bilan bog‘liq holatdir. Kambag‘allik faqat daromad yetishmasligi emas, balki ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va tizimli cheklovlar natijasidir.

Ushbu ta‘rif A. Senning imkoniyatlar yondashuvi, P. Townsendning ko‘p o‘lchovli mahrumlik tushunchasi va A.B. Atkinsonning axloqiy-siyosiy o‘lchov talablarini o‘z ichiga oladi. Kambag‘al aholi qatlami mamlakatdagi jadal iqtisodiy o‘shish natijalaridan foydalana olmaydi, shu bilan birga, jamiyatning muhim sohaslarida faol ishtirok eta olmasligi tufayli milliy rivojlanish jarayoniga o‘z hissasini qo‘shishdan ham chetda qoladi.

Kambag‘allikka olib keluvchi omillarni yondashuv va tur kesimida tahlil qilib, quyidagi umumiy tasnif ishlab chiqildi (1-jadval).



1-jadval. Kambag'allikni yuzaga keltiruvchi omillar xususiyatiga ko'ra umumiy tasnif

Yondashuv	Tur	Ta'rif	Xususiyatlari/Misol
Klassik	Ijtimoiy kambag'allik	Jamiyatdagi pozitsiya sababli normal hayot uchun zarur daromadga erisha olmaydigan zaif himoyalangan aholi toifalari	Ijtimoiy maqomdan kelib chiqqan moliyaviy imkonsizlik
	Iqtisodiy kambag'allik	Mehnat haqi miqdori adekvat turmush darajasini ta'minlashga yetmaydigan faol mehnatchilar qatlami	Ish bilan band bo'lishga qaramay past daromadlilik
	Moliyaviy kambag'allik	Davlat tomonidan ijtimoiy yordam berishdan avval va keyin qashshoqlik darajasini o'Ichash jarayoni	Davlat qo'llab-quvvatlashining samaradorligini baholash
Vaqt jihatidan	Davomli kambag'allik	Bir necha avlod davomida takrorlanadigan va odamlar kambag'allik omillarini bartaraf etishga imkon topa olmaydigan holat	Oilaviy qashshoqlikning avlodlar ketma-ketligida uzluksiz davom etishi
	Muddatli kambag'allik	Oila rivojlanishining alohida davrlariga, fasliy o'zgarishlarga yoki kutilmagan holatlar bilan bog'liq tiklanadigan holat	O'tkinchi tabiat, yechilishi mumkin bo'lgan muammolar
Hududiy (milliy miqyosda)	Endemik	Milliy boylik hajmi asosiy yashash standartlarini qondirish uchun yetarli bo'lmagan umumiy qashshoqlik	Rivojlanayotgan davlatlar (Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi)
	Siklik	Iqtisodiy sohalaridagi mavsumiy o'zgarishlar bilan aloqador	G'arbiy Yevropa mamlakatlari
	Hududiy/guruhiy	Aniq ijtimoiy-iqtisodiy toifalar yoki geografik joylar bilan bog'langan	Alohida viloyatlar yoki jamiyat qatlamlari
	Individual	Yakka tartibdagi noqulay holatlar natijasida paydo bo'lgan	Kasal bo'lish, ish yo'qolishi, nogironlik

O'zbekiston Markaziy Osiyo miqyosida iqtisodiyoti va moliyaviy barqarorligi o'sib borayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Biroq mamlakatning ichki sharoitlari, fuqarolarning etnik yashash tarzi va jamiyat mentaliteti yuzasidan kambag'allikning quyida keltirilgan 10 ta o'ziga xos turi farqlanadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston sharoitida kambag'allik turlari²

№	Kambag'allik turi	Tavsifi
1	Mutlaq kambag'allik	Aholining yashash minimumidan past daromad oluvchi qatlami
2	Nisbiy kambag'allik	Jamiyatdagi umumiy turmush darajasi bilan solishtirganda imkoniyatlar chegaralanishi
3	Davomiy kambag'allik	Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy muammolar
4	Muddatli kambag'allik	Mavsumiy daromadlarga ega aholida kuzatiladigan holat
5	Hududiy kambag'allik	Mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar
6	Shaxsiy kambag'allik	Nogironlik, kasallik yoki mehnat qobiliyatining yo'qolishi
7	Tibbiy kambag'allik	Sog'liqni saqlash xizmatlari va dori-darmon harajatlarini to'liq qoplay olmaslik; og'ir kasallik natijasida oila moliyaviy inqirozga tushishi; tibbiy sug'urta yetarli darajada rivojlanmaganligi (so'rovnomana natijalariga ko'ra, so'ralgan oilalarning 34 foizi og'ir kasallik tufayli qarzga kirishga majbur bo'lgan)
8	Qarzga asoslangan kambag'allik	Mikromoliya va bank kreditlarini o'z vaqtida qaytara olmaslik; yuqori foiz stavkalari va garovlar yo'qotish xavfi; «qarzdagi qarz» zanjiri yuzaga kelishi
9	Turmush sharoitiga asoslangan kambag'allik	Ichimlik suvi, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, yo'llar va transport infratuzilmasining yetishmasligi yoki yo'qligi; aloqa vositalari va internet imkoniyatlaridan mahrum bo'lish
10	Ekologik kambag'allik	Iqlim o'zgarishi, Orol dengizi ekologik fojiasi, suv resurslari tanqisligi va tuproq sho'rlanishi ta'siri; ekologik buzilish natijasida qishloq xo'jaligi samaradorligining pasayishi

1 Manba: Muallif tomonidan turli xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan [18]

2 Manba: Muallif ishlanmasi [19]



Ayniqsa, tibbiy kambag'allik so'rovnoma natijalariga ko'ra, so'ralgan oilalarning 34 foizini og'ir kasallik tufayli qarzga kirishga majbur qilmoqda. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta tizimini kuchaytirish va tibbiy xizmatlar qulayligini ta'minlash dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allik omillari har bir mamlakatning iqtisodiy, geografik, siyosiy va demografik holatiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq bir qator umumiy qonuniyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi, zamonaviy kambag'allik nazariyasi daromad mezonlaridan imkoniyatlar va mahrumlik mezonlariga siljigan (A. Sen, P. Townsend). Bu siljish O'zbekistonda kambag'allikni o'lchash metodologiyasini takomillashtirishni talab qiladi — faqat YalMga yoki ish haqi darajasiga asoslanish yetarli emas.

Ikkinchi, O'zbekiston sharoitida taklif qilingan 10 turli kambag'allik klassifikatsiyasi kambag'allikka qarshi siyosat ko'p yo'nalishli bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Tibbiy, qarzga asoslangan va ekologik kambag'allik turlari klassik tasniflar doirasidan chiqib, milliy kontekstga xos yangi kategoriyalar sifatida aniqlangan.

Uchinchi, surunkali kambag'allik (N.M. Rimashevskaya yondashuvi) va davomli kambag'allik (Townsend yondashuvi) o'rtasidagi o'xshashlik O'zbekiston qishloq hududlarida avloddan-avlodga o'tadigan kambag'allik muammosi mavjudligini tasdiqlab, unga nisbatan alohida dasturlar ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

To'rtinchi, R. Xasanov xulosalariga ko'ra, kambag'allikka qarshi samarali kurash faqat moliyaviy yordam berish emas, balki aholi o'z muammolarini mustaqil hal eta oladigan muhit yaratish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu mahalla institutini kuchaytirish va kambag'al aholini tadbirkorlikka jalb qilish orqali erishilishi mumkin (N.N. Ernazarova yondashuvi).

Beshinchi, Orol dengizi ekologik fojiasi bilan bog'liq ekologik kambag'allik O'zbekiston uchun o'ziga xos va boshqa davlatlar tajribasida to'liq o'rganilmagan kategoriya bo'lib, u alohida maxsus siyosat chora-tadbirlarini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kambag'allik fenomeni XIX asrdan buyon ko'plab nazariyotchilar tomonidan o'rganib kelingan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Dunyo amaliyotida kambag'allikning asosan uch asosiy turi — endemik, siklik va hududiy/guruhiy kambag'allik keng tarqalgan. Klassik yondashuvga ko'ra, u ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy turlariga bo'linadi; vaqt jihatidan esa davomli va muddatli shakllari farqlanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Kambag'allikning mualliflik ta'rifi taklif etilgan — u A. Senning imkoniyatlar yondashuvi, P. Townsendning ko'p o'lchovli tushunchasi va A.B. Atkinsonning axloqiy-siyosiy o'lchov talablarini birlashtirgan holda shakllantirilgan.

2. O'zbekiston sharoitida kambag'allikning 10 ta o'ziga xos turi aniqlangan: mutlaq va nisbiy kambag'allikdan tashqari, tibbiy, qarzga asoslangan, turmush sharoitiga asoslangan va ekologik kambag'allik turlari milliy kontekstga mos yangi kategoriyalar sifatida tavsiya etilgan.

3. O'zbekistonda kambag'allikka qarshi siyosat ko'p yo'nalishli bo'lishi zarurligiga doir nazariy asoslar berilgan.

Tadqiqot natijalari Buxoro viloyati hamda respublika miqyosida kambag'allikni kamaytirish dasturlarini ishlab chiqishda, mahalla va oilaviy dasturlarni maqsadlantirish siyosatida, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy tahlil va prognozlashda amaliy qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Humberto L., Serven L. Too Poor to Grow. — Washington D.C.: The World Bank. Policy Research Working Paper WPS5012. — 2009.
- Подузов А.А. Измерение бедности (зарубежный опыт) // Проблемы прогнозирования. — 1996. — № 4.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat milliy nashriyoti, 2006. — 680 b.
- BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasi. Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma. — Nyu-York, 2017.
- Booth C. Life and Labour of the People in London. — London: Macmillan, 1889. — Vol. 1.
- Rowntree B.S. Poverty: A Study of Town Life. — London: Macmillan, 1901.
- Reclus É. L'Évolution, la révolution et l'idéal anarchique. — Paris: Stock, 1898.
- Mann H. Annual Reports of the Secretary of the Board of Education of Massachusetts. — Boston: Dutton and Wentworth, 1848.
- Townsend P. Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living. — London: Penguin Books, 1979.
- Sen A. Development as Freedom. — New York: Oxford University Press, 1999. — ISBN 978-0-19-829330-7.
- Atkinson A.B. On the Measurement of Poverty // Econometrica. — 1987. — Vol. 55, № 4. — P. 749–764; Atkinson A.B. Inequality: What Can Be Done? — Cambridge: Harvard University Press, 2015.
- Sachs J. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. — New York: Penguin Press, 2005.



13. Kalonov M. Kambag'allikni qisqartirish: imkoniyat va harakatlar qanday natija beradi? // Xalq so'zi gazetasi. — 2021. — 11 fevral, 30-son.
14. Abduramanov X.X. Demografiya sohasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlari // Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. — 2020. — V son. — B. 144–153.
15. Ernazarova N.N. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. — 2021. — № 3. — B. 253–258.
16. Rimashevskaya N.M. Sotsialnye posledstviya ekonomicheskix izmenenii v Rossii // Sotsiologicheskie issledovaniya. — 1997. — № 6.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
